

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2024-yil 2-son

VOLUME 8 / ISSUE 2 / 2024

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2024.8.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 24.06.2024-yilda tipografiyaga topshirildi. Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli 18,6 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 87.

TDYU tipografiyasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

I. Rustambekov – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

MAS‘UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo‘limi boshlig‘i

TAHRIR HAY‘ATI A‘ZOLARI

A. Saidov – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining direktori, yuridik fanlar doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

E. Juchniewicz – Gdansk universiteti professori, huquq doktori (Gdansk, Polsha)

A. Younas – yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Pekin, Xitoy)

O. Okyulov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Sh. Asadov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Aminjonova – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

B. Murodov – O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Журнал передан в типографию
24.06.2024.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 18,6. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 87.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

И. Рустамбеков – доктор юридических наук, профессор, врио ректора Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

В. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

А. Саидов – доктор юридических наук, профессор, директор Национального центра по правам человека Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Э. Юхневич – доктор права, профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Юнас – доктор философии по юридическим наукам (Пекин, Китай)

О. Окюлов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ш. Асадов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Аминжонов – доктор юридических наук, доцент Правоохранительной академии Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

М. Рахимов – доктор юридических наук, доцент Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

О. Нарзуллаев – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

В. Муродов – доктор юридических наук, профессор Академии МВД Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

А. Мухамеджанов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Н. Ниязова – кандидат педагогических наук, и. о. профессора Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadiyeva

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the printing house on 24.06.2024.

Paper size: A4.

Cond. p.p.18,6. Unit: 100.

Order: 87.

Published in printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

I. Rustambekov – Acting Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD MEMBERS

A. Saidov – Director of the National Centre for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law, Professor (Tashkent, Uzbekistan)

E. Juchniewicz – Professor of the University of Gdansk, Doctor of Law (Gdansk, Poland)

A. Younas – Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Beijing, China)

O. Okyulov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Nematov – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Sh. Asadov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Aminjonova – Associate Professor of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Rakhimov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD) (Tashkent, Uzbekistan)

O. Narzullaev – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

B. Murodov – Professor of the Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

A. Muxamedjanov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

N. Niyazova – Acting Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**

O'zbekistonda strategik rejalashtirishni huquqiy ta'minlash masalasi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM O'G'LI**

O'zbekistonda soliq tekshiruvlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari

32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**

Saylov jarayoni ishtirokchisi sifatida siyosiy partiyalar: milliy qonunchilik va uni takomillashtirish

43 **MUSTANOV ILXOM ABIDVALIJONOVICH**

Banklar faoliyatini nazorat qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari: qiyosiy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

62 **GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLOMBEK RUSTAMBEKOVICH**

Raqamli aktivlarni himoya qilish: O'zbekiston kriptobirjalari ekotizimi uchun kiber xavfsizlik imperativlari

73 **MAHMUDXODJAYEVA UMIDA MUMINOVNA**

Ota-onalik huquqidan mahrum etish asoslari va oqibatlari: nazariya va amaliyot

87 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**

Raqamli obyektlarni vasiyat qilish: meros qoldiruvchining so'nggi istagini amalga oshirish muammolari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar, ularning analoglari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik choralari takomillashtirish

113 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**

Jinoyat huquqida harakatsizlik va uning turlari: tahlil va taklif

125 **ABDUXAKIMOV MURODULLO TOG'AYEVICH**

Xorijiy mamlakatlarda yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror nazorati ahvoli

137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida yuridik shaxslarga nisbatan jazoni yengillashtirish masalalari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**

Yuridik terminologiyada sinonimiya va polisemiya

155 **KARAXODJAYEVA DILOROM MAMIROVNA**

Ruzinazarov Shuhrat Nuraliyevich – taniqli olim, O'zbekiston zamonaviy fuqarolik huquqi maktabi vakili

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

8 ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ

К вопросу о правовом обеспечении стратегического планирования в Узбекистане

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

19 НОРМАТОВ БЕКЗОД АКРАМ УГЛИ

Вопросы совершенствования правового регулирования налоговых проверок в Узбекистане

32 ИСТАМОВ МАХМУД ШУХРАТОВИЧ

Политические партии как участники избирательного процесса: национальное законодательство и его совершенствование

43 МУСТАНОВ ИЛЬХОМ АБДИВАЛИЖОНОВИЧ

Организационно-правовые механизмы контроля банковской деятельности: сравнительно-правовой анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

62 ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ, РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ

Защита цифровых активов: императивы кибербезопасности для экосистемы криптобирж Узбекистана

73 МАХМУДХОДЖАЕВА УМИДА МУМИНОВНА

Основания и последствия лишения родительских прав: теория и практика

87 ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА

Завещание цифровых объектов: проблемы реализации последней воли наследодателя

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

97 ОТАЖОНОВ АБРОРЖОН АНВАРОВИЧ,

Совершенствование мер ответственности за такие преступления, как незаконный оборот наркотических средств, психотропных веществ и их аналогов

113 ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ

Бездействие и его виды в уголовном праве: анализ и предложения

125 АБДУХАКИМОВ МУРОДУЛЛО ТОГАЕВИЧ

Состояние прокурорского надзора за исполнением земельного законодательства в зарубежных странах

137 ИСЛОМОВ БУНЁД ОЧИЛОВИЧ

Вопросы смягчения наказания в отношении юридических лиц по уголовному законодательству зарубежных стран

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

147 ГУЛЯМОВА ГУЛЬНОРА ЯКУБОВНА

Синонимия и полисемия в юридической терминологии

155 КАРАХОДЖАЕВА ДИЛОРОМ МАМИРОВНА

Рузиназаров Шухрат Нуралиевич – выдающийся учёный, представитель современной цивилистической школы Узбекистана

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

8 **TULTEYEV ILYAS TAVASOVICH**

On the issue of legal support for strategic planning in Uzbekistan

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

19 **NORMATOV BEKZOD AKRAM UGLI**

Issues of improvement of legal regulation of tax inspections in Uzbekistan

32 **ISTAMOV MAXMUD SHUXRATOVICH**

Political parties as participants of the electoral process: national legislation and its improvement

43 **MUSTANOV ILKHOM ABDIVALIJONOVICH**

Organizational and legal mechanisms for control of banking activities: comparative-legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

62 **GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH, RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH**

Protecting digital assets: cybersecurity imperatives for Uzbekistan's crypto exchange ecosystem

73 **MAHMUDKHODJAEVA UMIDA MUMINOVNA**

Foundations and consequences of deprivation of parental rights: theory and practice

87 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAZHIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**

Bequest of digital objects: problems of realisation of the last will of the testator

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

97 **OTAJONOV ABRORJON ANVAROVICH**

Improving liability measures for crimes involving the illegal handling of narcotic drugs, psychotropic substances, and their analogues

113 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**

Inaction in criminal law and its types: analysis and proposals

125 **ABDUKHAKIMOV MURODULLO TOGAEVICH**

The state of prosecutorial control over execution of land legislation in foreign countries

137 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Issues of mitigation of punishment for legal entities in the criminal legislation of foreign countries

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

147 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**

Synonymy and polysemy in legal terminology

155 **KARAXODJAEVA DILOROM MAMIROVNA**

Ruzinazarov Shukhrat Nuralievich – an outstanding scientist, a representative of the modern civil school of Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 06.06.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.rols.2024.8.2./TNYO2389

UDC: 80:340(045)(575.1)

YURIDIK TERMINOLOGIYADA SINONIMIYA VA POLISEMIYA

Gulyamova Gulnora Yakubovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi
ORCID: 0000-0003-3559-6011
e-mail: gulyagulyamova87@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tilshunoslik bo'limi – leksikologiyada tilning asosiy lug'aviy birligi bo'lmish leksemalar, ularning ma'noviy aloqadorligi, yuridik terminologiyada sinonimiya, polisemiya hodisalari, leksik sinonimlar, variantdorlik, o'z va o'zlashma terminlardan iborat sinonimik qator, kalka, terminlarning "bitta termin – bitta tushuncha" prinsipi, lingvistik omil – polisemiya, polisemantik terminlar, bundagi chalkashliklar, yuridik terminlarning mavzuiy guruhlari, umumhuquqiy tezaurus xususida fikr yuritiladi. Yuridik terminlarning o'zaro munosabatida sinonimiyaning faolligini ko'rish mumkin. Rasmiy yuridik matnlarda qator tushunchalar ikki va undan ortiq so'zlar bilan berilmoqda, ya'ni sinonimlardan unumli foydalanilmoqda, natijada leksik qatorni ikkita, uchta va undan ortiq terminlar tashkil etib kelmoqda. Bu esa terminologiya uchun salbiy holat hisoblanadi. Shu bois maqolada qator yuridik terminlar lug'atlari va ensiklopediya misolida leksik sinonimlar, tilning ilmiy va rasmiy uslublariga zid – birxillikdan chekinish holatlari, o'z va o'zlashma terminlardan iborat sinonimik qator, yakka va birikma terminlar, sinonimlarni yuzaga keltiruvchi kalka usuli, sinonimiyaning variantdorlik turi, yuridik terminologiyada polisemiya (ko'p ma'nolilik) hodisasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, o'zbek yuridik terminologiyasida so'z va terminlarning o'zaro munosabatiga oid xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: yuridik til, leksikologiya, leksema, termin, ma'noviy aloqadorlik, sinonimiya, variantdorlik, ilmiy uslub, sinonimik qator, lug'aviy birlik, o'zlashma termin, laqab, taxallus, polisemantik birikma, tezaurus.

СИНОНИМИЯ И ПОЛИСЕМИЯ В ЮРИДИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ

Гулямова Гульнора Якубовна,
кандидат филологических наук,
профессор Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье рассматриваются лексемы, являющиеся основной лексической единицей языка в разделе языкознания – лексикологии, их смысловая связь, синонимия в юридической терминологии, явления полисемии, лексические синонимы, вариантность, синонимический ряд, состоящий из собственных и производных калькированных терминов, а также принцип терминов «один термин – одно понятие», лингвистический фактор – полисемия, полисемия терминов, их инотолкование, тематические группы

юридических терминов, общеправовой тезаурус. Кроме того, в статье внимание уделяется частотности синонимии, которую можно наблюдать во взаимодействии юридических терминов. Также в статье раскрывается вопрос касательно такого явления, как употребление в официальных юридических текстах ряда терминов, выраженных двумя и более словами, что негативно отражается на терминологии. На примере ряда юридических терминологических словарей и энциклопедий обращается внимание на лексические синонимы, противоречащие научным и формальным методам языка, – случаи отклонения от единообразия; кроме того, рассматривается синонимический ряд, состоящий из собственных и производных терминов; простые и составные термины; метод калькирования, образования синонимов; вариантный тип синонимии, явление полисемии (многозначности) в юридической терминологии. Также даются выводы и предложения относительно соотношения слов и терминов в узбекской юридической терминологии.

Ключевые слова: юридический язык, лексикология, лексема, термин, смысловая связь, синонимия, вариация, научный стиль, синонимический ряд, лексическая единица, псевдоним, прозвище, многозначное сочетание, тезаурус.

SYNONYMY AND POLYSEMY IN LEGAL TERMINOLOGY

Gulyamova Gulnora Yakubovna,

Professor of Tashkent State University of Law,
Candidate of Philological Sciences

Abstract. This article discusses lexemes, which are the main lexical unit of language in the section of linguistics - lexicology, their semantic connection, synonymy in legal terminology, the phenomenon of polysemy, lexical synonyms, variation, a synonymous series consisting of proper and derivative, calque terms, as well as the principle of terms "one term – one concept", linguistic factor – polysemy, polysemy of terms, their foreign interpretation, thematic groups of legal terms, and general legal thesaurus. In addition, the article pays attention to the frequency of synonymy, which can be observed in the interaction of legal terms. In addition, the article reveals the issue regarding such a phenomenon as the use in official legal texts of a number of terms expressed in two or more words, which negatively affects terminology. Using the example of a number of legal terminological dictionaries and encyclopedias, attention is drawn to lexical synonyms that contradict scientific and formal methods of language - cases of deviation from uniformity, a synonymous series consisting of proper and derived terms, simple and compound terms, the method of tracing, the formation of synonyms, a variant type of synonymy, and the phenomenon of polysemy (multiple meanings) in legal terminology. Conclusions and suggestions regarding the relationship of words and terms in Uzbek legal terminology are also given.

Keywords: legal language, lexicology, lexeme, term, semantic connection, synonymy, variation, scientific style, synonymic series, lexical unit, alias, nickname, polysemantic combination, thesaurus.

Kirish

Tilshunoslikda, xususan, leksikologiyada tilning asosiy lug'aviy birligi bo'lmish leksemalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro bog'liqlikda, xilma-xil ma'noviy aloqadorlikda reallik kasb etishi alohida ta'kidlanadi. O'zbek tilshunosligida sinonimiya bir qadar chuqurroq o'rganilgan masaladir.

Sohaviy terminologiyalarni, jumladan, yuridik soha terminologiyasini tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda (M. Qosimova, Sh. Ko'chimov) ham sinonimiyaga alohida to'xtab o'tilgan [1–3]. Lug'aviy birliklarning, jumladan, terminlarning o'zaro munosabati haqida gap ketar ekan, sinonimiya masala-

si ham ko'ndalang bo'ladi. Chunki xohlaymizmi-yo'qmi, hozirgi o'zbek yuridik terminologiyasida ko'plab tushunchalar ikki va undan ortiq terminlar bilan ifodalab kelinmoqda, sinonimlarning leksik sinonimlar (absolyut) va variantdorlik turlari, ayniqsa, ko'plab uchrab turadi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Yuridik terminlar lug'atlari va qomuslariga murojaat etilganda, leksik sinonimlar qatorini ikkita, uchta va undan ortiq terminlar tashkil etganligini ko'rish mumkin:

a) *sinish – kasodga uchrash,*

vasiylik – homiylik,

guvoh – shohid, vorislik – meros olish,

merosxo'r – voris,

kamomad – kam kelish;

b) *talonchilik – o'g'rilik – mol-mulkni talab olish;*

oqlash – haqli deb topish – aybsiz deb topish;

ko'rik – ko'rish – ko'zdan kechirish – tekshirib chiqish

ko'rgazma – ko'rsatma ko'rsatuv va b.

To'g'ri, sinonimlar adabiy til uslubini hamda jonli so'zlashuv nutqini bezashga yordam beradi, lekin terminlarga boy bo'lgan ilmiy uslub uchun bu holat ijobiy hisoblanmaydi. Chunki sinonimlar bir yuridik tushunchaning aniq ifodasi bo'la olmaydi, natijada informatsiya-axborot almashinuv jarayoni qiyinlashadi. Afsuski, o'zbek tilining yuridik terminologiyasida ham ko'plab sinonimlar uchraydi. Natijada qonunlar yaratishda, huquqiy aktlar tuzishda birxillikdan chekinish holatlari kuzatilmoqda.

Material va metodlar

Boshqa terminologik sohalarda bo'lganidek, o'zbek yuridik terminologiyasida ham o'z va o'zlashma terminlardan iborat sinonimik qator tez-tez uchrab turadi. Bunda, ayniqsa, ruscha-baynalmilal va o'z (ularning ba'zilar forsiy yoxud arabiy bo'lishidan qat'i nazar) qatlamga doir lug'aviy birliklar sinonimiyasi ko'zga tashlanadi.

Hozirgi yurisprudensiya o'tgan asrning 20–30-yillaridan keyin shakllana boshlagan edi. Ta'kidlash joizki, bu soha terminologiyasining shakllanish jarayoni osonlik bilan kechmadi. Mustaqillikka erishilganligi sharofati bilan o'z Konstitutsiyamizning yaratilganligi, yangidan yangi qonunchilik aktlari va hujjatlarning qabul qilinayotganligi, sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, moddiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar o'zbek tilining sohalar terminologiyalari, xususan, yuridik terminologiyasining shakllanishi, rivoji va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri bo'lib qoldi.

Har qanday ilmiy tadqiqotning samarasi tanlangan tahlil metodlari va ularning nazariy asoslanishiga bog'liq, shu bois yuridik til, uning terminologiyasi bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, fikr va mulohazalar o'rganilib qiyoslandi.

Tadqiqot natijalari

Qonunchilikka oid qator manbalarni tahlil qilish natijasida yuridik sinonim terminlardan foydalanishning quyidagi holatlari uchradi:

1. O'z terminlarimiz (ularning ko'pi ona tilimizga o'zlashib ketgan fors-tojikcha yoxud arabcha bo'lishi mumkin) sinonimiyasi:

nasiya – qarz – burch;

topshiriq – vazifa;

muassasa – mahkama;

nizom – qonunlar;

homiylik – yoqlovchilik [4];

aybdor – gunohkor;

ega – biylovchi – egallovchi – egalik qiluvchi;

guruhboz – tarafkash;

o'lpon – xiroj;

vasiyat – vasiyatnoma [5];

farmoyish – ko'rsatma;

asos – bahona – vaj;

tarafdor – yoqlovchi;

jabr – zulm – istibdod [6].

2. O'zlashma termin va uning o'zbek tilidagi sinonimlari:

avdar – mulk – boylik;

avantyura – qaltis ish, tavakkaliga xatarli ish;

anketa – so'rovnoma;

arbitraj – hakamlar sudi;

aparteid – irqiy ayirmachilik – huquqni

cheklash – ta'qib qilish;

auksion – kimoshdi savdosi;

*blanket norma – huquqiy norma – havola
qiluvchi norma;*

3. O'zbekcha termin va uning o'zlashma
sinonimi:

firibgar – afera;

ijara – prokat;

omonat qo'yilgan pul – depozit;

ruxsatnoma, rozilik, imzo – viza;

4. O'zlashma termin va uning aralash tip-
dagi sinonimlari:

hadya akti, hadya hujjati;

aktnoma, qaydnoma, qayd daftari;

*ma'muriy jarayon, protsess, ma'muriy ish
yuritish tartibi, ma'muriy muhokama kabilar.*

Shu bilan birga, yuridik terminologiyada
yakka va birikma terminlar sinonimiyasi ham
ko'plab ishlatilayotganligini ko'rish mumkin.
Misollar keltiramiz:

yoqlash – himoya qilish;

nazorat – nazorat qilish;

huquqbuzarlik – tartib buzish;

guvohlantirish – tekshiruvdan o'tkazish;

oqlash – aybsiz deb topish;

talash – o'g'irlash – talonchlik qilish [6]

(RO'YUAL).

Birikma terminlarning ham sinonimlashib
kelishi odat tusiga aylanganligini ta'kidlab
o'tish lozim. Masalan:

kafolatda turish – kafillikda bo'lish;

qonunsiz harakat – g'ayriqonuniy ish;

shikoyat qilish – shikoyat arizasi berish;

payli shirkat – hissadorlik shirkati (YUAIL);

pul yuborish – pul o'tkazish;

*qayta ro'yxatga olish – qayta ro'yxatdan
o'tkazish;*

*meros qabul qilish – meros olish (RO'YU-
AL).*

Demak, hozirgi o'zbek yuridik termi-
nologiyasida sinonimlarni yuzaga keltiruv-
chi faol usul kalkadir. Ya'ni chetdan so'z qa-
bul qilish natijasida, tilda bir terminning bir

necha ko'rinishlari paydo bo'ladi (yuqoridagi
misollar). Bu holatlarni yuridik soha lug'at-
larida yaqqol ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, lug'atlarda o'zlashma
so'zlarning o'zbekcha muqobilini berishda
sinonimlardan noo'rin foydalanilgan holat-
lar ham kuzatildi. Masalan, rus tilidagi *pse-
vdonim* atamasi o'zbek tilida *taxallus*, *laqab*
deb berilgan [7]. O'zbek tilida sinonim sifati-
da berilgan bu ikki so'z hozirgi kunda ma'no
jihatdan bir-biridan farq qiladi: *taxallus* – yo-
zuvchi, rassom, artistlar traditsiyaga ko'ra
o'ziga o'zi qo'yib olgan boshqa nom. *Taxal-
lusga* misol qilib Qodiriy, Fitrat, Gulxaniy,
Navoiy, Muqimiylarni ko'rsatish mumkin.

Laqab esa hozirgi kunda asosan biror xu-
susiyatiga ko'ra, kishiga hazil tariqasida yoki
masxaralab beriladigan qo'shimcha nom
ma'nosini bildiradi (Bo'tqa, Chuvrindi, Kesak-
polvon. "Shaytanat" asaridan).

Bundan tashqari, jonivorlarga qo'yiladi-
gan nom ham laqab deb yuritiladi (To'rtko'z,
Baroq, Qoplon).

Hozirgi kunda ham me'yoriy hujjatlarda
sinonimlardan keng foydalanib kelinmoqda.
Shu bois yuridik idoralar hujjatlari hozircha
o'zini to'la oqlay olmayapti, terminlarning
birxillik qoidasiga amal qilinmayapti. Buni
ko'plab misollarda ko'rish mumkin:

yagona soliq, bir xil soliq;

nikoh yoshi, balog'at yoshi;

huquqsizlik, haqsizlik;

nikohsizlik, bo'ydoqlik, xotinsiz (ersiz) ya-
shash;

ma'mur, ma'muriyat boshlig'i, boshqaruv-
chi;

odil sudlov, qonuniy sudlov;

egalik huquqi, biylash huquqi;

konsulxona, konsullik, vakolatxona va b.

Kuzatishlarimiz natijasida yana shu nar-
sa ma'lum bo'ldiki, qonunchilikdagi me'yoriy
hujjatlar terminologiyasidagi har xilliklar
huquq sohasiga me'yorlashmagan so'zlar
evaziga ham ko'paymoqda:

tovar – mol, butlovchi buyum;

zona – doira, hudud;

dotatsiya – qo'shimcha mablag' berish, kemtikni to'ldirish;

topilma – topildi;

krizis – tanglik, bo'hron va h.k.

O'zbek yuridik terminologiyasida sinonimiyaning variantdorlik turi ham keng tarqalganligini ta'kidlash lozim. Bunday variantdor terminlar ikki xil ko'rinishdadir:

1. Bir komponentli terminlar variantdorligi: kafillik – kafolat, ishonchsizlik – ishonmaslik, o'g'irlash – o'g'rilik, narx – narx-navo, jaholat – jaholatparastlik va b.

2. Ikki va undan ortiq komponentli, ya'ni birikma terminlar variantdorligi:

odil sudlov – adolatli sudlov, sud muhokamasi – sud tekshiruvi – sud taftishi,

moliya organlari – moliyaviy organlar, xususiy ajrim – alohida ajrim,

yuriskonsult – yuridik konsultant – yuridik maslahatchi va b.

Ko'rinadiki, yuridik terminlar fikrni aniq bayon qilishi, aniq va ravon bo'lishi, mazmunni bir necha ma'noda emas, qat'iy bir ma'noda ifodalashi lozim. Aks holda, fikr chalkashliklariga olib keladi. Shuning uchun terminologiya nazariyasida "bitta tushunchaga – bitta til birligi" prinsipiga amal qilish shart. Shunday ekan, nafaqat terminshunolar, balki yurist mutaxassislar ham imkon qadar "bittaga – bitta" prinsipi asosida ish ko'rishlari lozim.

Huquq bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy-siyosiy termin – "*hokimlik*"ni olib ko'raylik. Mazkur termin ifodalayotgan tushunchaga nisbatan ikki xil ko'rinishda ishlatilmoqda (*Toshkent shahri hokimligi, Yunusobod tumani hokimiyati*).

Fikrimizcha, bu o'rinda hokimlik variantidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki hokimlik termini grammatik qurilishi, tovush tuzilishi, talaffuzi jihatidan o'zbek adabiy tili talablariga to'liq mos keladi. Bundan tashqari, *-lik* affiksi o'zbek adabiy tilida faol so'z yasovchi qo'shimcha hisoblanadi (*tadbirkorlik, javobgarlik, tamagirlik, giyohvandlik, dezertirlik va h.k.*).

Shuni ham e'tiborga olish kerakki, hokimiyat termini "davlat boshqarmasi" ma'nosida qat'iylashib qolgan: oliy hokimiyat. Bunday hokimiyatni esa prezident yoxud vazir (ministr) boshqaradi. Shunday ekan, tuman, shahar, viloyatlarni boshqarish organini *hokimlik* deb atash ma'qul deb hisoblaymiz.

Terminlar polisemiya. So'zlar yoki terminlarning o'zaro munosabatini ko'rsatuvchi lingvistik omillardan yana biri polisemiya, ya'ni ko'p ma'nolilikning mavjudligidir.

Avvalo shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek adabiy tilida polisemiya juda keng tarqalgan hodisa. Shu bilan birga, qator terminologik sistemalarda ham ko'p ma'noli (ko'pincha ikki ma'noli) terminlardan foydalanib kelinmoqda.

Yuridik terminologiya ham bundan mustasno emas. Polisemantik terminlar haqida so'z yuritilganda, bir holat xususida aniqlik kiritish lozim deb topildi.

O'zbek tilining terminologik sistemalarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim ishlarda polisemiya bahsida chalkashlikka yo'l qo'yilganligini ta'kidlamay bo'lmaydi. Shunday bir misolni olib ko'raylik:

Jyuri – tanlovlarda, sport musobaqalari va hokazolarda g'olibni aniqlash va mukofot berish masalasini hal etuvchi mutaxassislar guruhi.

Huquqshunoslik terminologiyasiga murojaat qilinganda, uning quyidagi ma'noga ega ekanligi ma'lum bo'ldi: Jinoyat jarayonida, fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda ishtirok etuvchi professional bo'lmagan sudyalalar, qasamyodchi sudyalalar kollegiyasi [8].

Jyuri terminini yuridik terminologiyadagi polisemiya deb ayta olamizmi? Yo'q, albat. Chunki mazkur termin umumadabiy til nuqtayi nazaridan polisemantikdir. Shunday ekan, har bir terminologik tizimning o'zidagina polisemantik terminlar haqida so'z yuritilishi lozim.

Yuridik hujjatlar, qonunchilik, yuridik lug'atlar o'rganib chiqilganda, ko'pincha ikki ma'noli terminlar ishlatib kelinayotganligi

ma'lum bo'ldi. Aksariyat hollarda yakka terminlar polisemiyasi uchrab turadi.

Yuridik terminologiyada *ayblov* asosiy terminlardan biri hisoblanadi. Tegishli manbalarda ikki xil ma'nosi bilan ishlatib kelinmoqda:

1. Jinoyat protsessida vakolatli organlar va shaxslarning jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxs aybdorligini isbotlashdan iborat faoliyati.

2. Ayblov tezisining ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to'g'risidagi qarori, ayblov xulosasi., ayblov hukmida ko'rsatilgan mazmun (YUE, 14).

Asli o'zbekcha (fors-tojikcha yoki arabcha bo'lishidan qat'i nazar) polisemantik terminlar jumlasiga yana quyidagilarni kiritish mumkin:

Garov: 1. Fuqarolik huquqida majburiyatlar bajarilishini ta'minlashning asosiy usullaridan biri. 2. Ko'chmas mulkning qarzдор tomonidan garovga qo'yilganligi to'g'risidagi hujjat (YUE).

Guvohnoma: 1. Taqdim etuvchining shaxsi haqida guvohlik beruvchi rasmiy hujjat. 2. Muayyan faktlarni ... yoki huquqni ... tasdiqlovchi hujjat (Yuridik ensiklopediya).

Ta'kidlash joizki, o'zbekcha yuridik terminlarning ba'zilari hatto uch xil ma'noda ishlatib kelinmoqda. Masalan, jarima shunday terminlardan biri hisoblanadi. Yuridik ensiklopediyada uning quyidagi ma'nolarga ega ekanligi qayd etilgan: 1. Pul undirish, moddiy ta'sir chorasi. 2. Jinoyat qonunlariga ko'ra, jarima O'zbekiston Respublikasi JKda belgilangan chegaralarda o'rnatiluvchi, pul undiruvchi jazo ko'rinishi. 3. Ma'muriy huquqda MJKda ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarliklar uchun qo'llanadigan jazo.

Norezidentlar: 1. Xorijda muqim yashash joyi bo'lgan, shuningdek, vaqtincha O'zbekiston Respublikasida turgan jismoniy shaxslar. 2. O'zbekiston Respublikasi tashqarisida joylashgan, ajnabiy davlatlarning qonunlarga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar. 3. O'zbekiston Respublikasida joylashgan, yuri-

dik huquqlar asosida ish ko'radigan ajnabiy vakolatxonalar.

Yuridik terminologiyaning kattagina bir qismini ruscha-baynalmilal terminlar tashkil etgan. Shunisi ham borki, ularning ayrimlari ko'p ma'nolidir. Bunday terminlar ayni shu ma'nolari bilan o'zbek tilining yuridik terminologiyasida ham ishlatib kelinmoqda. Quyidagi ruscha-baynalmilal ko'p ma'noli terminlar o'zbek tilining yuridik terminologiyasida ham ishlatib kelinmoqda: akt, arxiv, kadastr, sertifikat, ekzekvatura, depozitor, dispasha va b.

Ikki ma'noli shu kabi ayrim terminlar o'zbek tilida terminlarning polisemiyasini hosil qiladi: *Menejer*: 1. Yuqori malakali yollangan boshqaruvchi. 2. Ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha mutaxassis. *Viza*: 1. Davlat hududiga kirish, chiqish, yashash yoki hududidan o'tishga maxsus ruxsat berilganligini ko'rsatuvchi belgining pasportda qo'yilishi. 2. Hujjatning aniq nusxa ekanligini tasdiqlovchi yozuv. *Deport*: 1. Qimmatbaho qog'ozlarning kursi pasayishiga umid qilib, ular bilan tezda amalga oshiriladigan birja bitimi. 2. Bitim bo'yicha hisob-kitobni kechiktirishga rozilik uchun beriladigan chegirma.

Shu bilan birga, uch xil ma'noli ayrim terminlar ham qo'llanishda ekanligini ta'kidlaymiz: *Vaucher*: 1. Privatizatsiya yoki mulkni xususiyashtirish jarayonida privatizatsiya qilingan mulkni olish (xususiyashtirish, o'zlashtirish) huquqini beruvchi mulkiy kupon. 2. Yozma guvohlik, kafolat – tavsiya xati. 3. Shaxs nomi ko'rsatilgan privatizatsiya cheki. *Kassatsiya*: 1. Kuchga kirmagan sud qarori yoki hukmi ustidan yuqori turuvchi sudga shikoyat qilish va e'tiroz bildirish. 2. Ishda mavjud bo'lgan hujjatlar bo'yicha sud qarori va hukmining qonuniy, asoslangan bo'lishini yuqori sud tomonidan tekshirish. 3. Quyi sud tomonidan qonun buzilganligi yoki sud yuritish tartibiga rioya qilmaganligi sababli quyi sudning qarori yoki hukmini yuqori sud pog'onasi tomonidan qayta ko'rib chiqish, bekor qilish.

Yuridik tilda ruscha-baynalmilal polise-
mantik birikma terminlar ham mavjud: *Im-
port kvotasi*: 1. Mamlakatga belgilangan to-
varlarni olib kirishni cheklovchi notarif sa-
noq (qiymat yoki natura shaklidagi) usullari.
2. Butun milliy xo'jalik uchun, shuningdek,
turli mahsulotlar xillari bo'yicha alohida so-
halar va ishlab chiqarishlar uchun import-
ning ahamiyatini xarakterlovchi iqtisodiy
ko'rsatkich. Keltirilgan dalillardan o'zbek ti-
lining yuridik terminologiyasida sinonimiya
singari polisemiya ham keng tarqalganligini
tasdiqlaydi. Ma'lumki, terminologiyaga oid
yo'riqnomalarda ham, terminlarni tadqiq
etishga bag'ishlangan ishlarda ham polisemi-
yaga salbiy qaraladi, ya'ni muayyan bir termi-
nologik tizimda polisemantik terminlarning
ishlatilmasligi uqtirib o'tiladi. Shunday ekan,
yuridik terminologiyada ham mazkur ko'rsat-
malarga amal qilish lozim. Bu masalani tezau-
rus bilan ijobiy hal etish mumkin.

Xulosa

1. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi
natijasida qator terminologik tizimlarda, jum-
ladan, yuridik terminologiyada ham ijobiy

o'zgarishlar ro'y berdi, ya'ni yangi terminlar
paydo bo'la boshladi, arxaiklashganlari o'rni-
ni yangilari egalladi.

2. Yuridik terminlarning mavzuiy guruhla-
rini aniqlash shu sohaning terminologiyasi
haqida yaqqol tasavvur tug'diradi. Mavzuiy
guruhlar tarkibidagi terminlar ularning o'za-
ro bog'liqlikda, xilma-xil ma'noviy aloqador-
likda reallik kasb etishini tasdiqlaydi.

3. Yuridik terminologiyada ham bir tu-
shunchani ifodalash uchun ikki va undan or-
tiq termindan iborat sinonimiya nihoyatda
ko'payib ketgan. Bunday holat axborot al-
mashish jarayonining qiyinlashuviga olib kel-
moqda.

4. Yuridik terminologiyada polisemiya
serobligi bilan ajralib turadi. Salbiy deb qa-
raladigan polisemiyaning chegaralash uchun
tezaurusdan foydalanish zarur. Yuridik ter-
minlarning mavzuiy guruhlarini aniqlash
shu sohaning terminologiyasi haqida yaq-
qol tasavvur tug'diradi. Mavzuiy guruhlar
tarkibidagi terminlar ularning o'zaro bog'liq-
likda, xilma-xil ma'noviy aloqadorlikda real-
lik kasb etishini tasdiqlaydi.

REFERENCES

1. Kasymova M.KH. Strukturno-sistemnyye osobennosti yuridicheskoy terminologii uzbekskogo yazyka [Structural and systemic features of legal terminology of the Uzbek language]. Tashkent, 1985.
2. Ko'chimov Sh.N. O'zbekiston Respublikasi qonunlarining tili [Language of the laws of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 1995.
3. Ko'chimov Sh.N. Huquqiy normalarni o'zbek tilida ifodalashning ilmiy-nazariy muammolari (lingvo-yuridik tahlil) [Language of the laws of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, 2004.
4. Bokirov F.S. Yuridik terminlar lug'ati [Dictionary of legal terms]. Tashkent, UzFA, 1959.
5. Yuridik atamalar va iboralar lug'ati [Dictionary of legal terms and phrases]. Tashkent, Justice Publ., 1993.
6. Ahmedov G., Bektemirov H. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati [Dictionary of Russian-Uzbek legal terms]. Tashkent, Justice Publ., 2002. O'zbek tilining izohli lug'ati [An explanatory dictionary of the Uzbek language]. Moscow, 1981, vol. 1, 2.
7. Yuridik atamalar qomusiy lug'ati [Dictionary of legal terms]. Tashkent, Justice Publ., 2003.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati [Dictionary of linguistic terms]. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan, 2002, p. 154.
9. Yusupov S.N. Tezaurus i zakonodatel'stvo (k sozdaniyu obshchepravovogo tezaurusa) [Thesaurus and legislation (towards the creation of a general legal thesaurus)]. *The Soviet State and Law*, 1978, no. 5, p. 115.

10. Ko'chimov Sh.N. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti [Legal language theory and practice]. Tashkent, University of World Economy and Diplomacy, 2013.
11. Cogens J. Constitution Making. 2019, pp. 97–109.
12. Gulyamova G. Yazyk, pravo i pravovaya kul'tura [Language, law and legal culture]. *Universum*, Moscow, 2023, vol. 1 (103), pp. 38–41.
13. Gulyamova G. Izucheniye giponimii i sinonimii yuridicheskikh terminov v usloviyakh distantsionnogo obucheniya [The study of hyponymy and synonymy of legal terms in the context of distance learning]. *Review of Law Sciences*, 2020, vol. 2, pp. 250–253.
14. Yue X. Legal encyclopedia. Tashkent, Sharq Publ., 2001.
15. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi [Criminal Code of the Republic of Uzbekistan]. Tashkent, Justice Publ., 1998.
16. Ahmedov G'. Ruscha-o'zbekcha yuridik atamalar lug'ati [Dictionary of Russian-Uzbek legal terms]. Tashkent, Justice Publ., 2002.